



KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI BAHOLASH MEZONLARI

Azimova Firuza Kamolovna - Buxoro davlat texnika univerteti

o'qituvchisi .

200100, Buxoro sh. Q. Murtazoev ko'chasi 15-uy.

E-mail: firuzaazimova1993@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini shakllantirish va baholashning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishda kompetentlikning tutgan o'rni, ta'lim texnologiyalarining roli, baholash mezonlari va metodik yondashuvlar tizimli tahlil qilinadi. Muallif kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bosqichlarini, ta'lim samaradorligini oshirish omillarini va baholash shakllarining xususiyatlarini aniqlab beradi. Shuningdek, nazorat va baholash faoliyatining pedagogik jarayondagi ahamiyati ham chuqur yoritilgan.

Kalit so'zlar

Kasbiy kompetentlik, pedagogik ijodkorlik, baholash mezonlari, ta'lim texnologiyasi, nazorat usullari, bo'lajak mutaxassis, ta'lim sifati.

Asosiy matn

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayoni bo'lajak mutaxassis individualligini, ya'ni ayni sharoitda ijtimoiy ta'sir ob'ekti bo'lgan psixologik xususiyat va sifatlarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunga birinchi navbatda bo'lajak mutaxassisning maqsadga yo'naltirilganligi, bilim olish motivatsiyasi, erishgan yutuqlari, bilish qobiliyatlari va o'quv-pedagogik vazifalarni hal qila olish darajasi kiradi. Shu bilan birga, atrofdagilar ta'sirida



boshqa kasbiy va hayotiy jihatdan muhim jarayonlar (o'zini anglash, o'z-o'zini baholash) ham rivojlanadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, talabalik davrida shaxsning qiziqishlari rivojlanib boradi. Bo'lajak mutaxassisning qiziqishlarini, oliy ta'limdagi sharoitlarga moslashuvini individual o'rganish muhim. Buning uchun o'qituvchi bo'lajak mutaxassislarning amaliy kompetentligini va ijodiy qobiliyatlarini tahlil qila olishi zarur. Shuning uchun kasbiy kompetentlik va ijodkorlikni psixologik sifatlar bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak o'qituvchining ijodiy individualligi o'quv-pedagogik faoliyatdagi nostandart yechimlar, mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, g'oya ilgari surishda namoyon bo'ladi. O'qituvchining ijodiy individualligi uning ilmiy tafakkuri, kasbiy izlanishga moyilligi, yangi yondashuvlarni qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi quyidagilardan iborat:

- Psixologik tayyorgarlik – kasbga qiziqish, bilimlarni uzluksiz boyitish, kasbiy fikrlashni rivojlantirish;
- Ilmiy-nazariy tayyorgarlik – psixologik-pedagogik va maxsus bilimlarni egallash;
- Amaliy tayyorgarlik – kasbiy mahorat va ko'nikmalarning shakllanishi;
- Psixologik-fiziologik va jismoniy tayyorgarlik – sog'lom salohiyat va pedagogik faoliyatga tayyorlik.

Kasbiy tayyorgarlik va kompetentlik bir-biriga yaqin tushunchalardir. Tayyorgarlik – bu ichki holat bo'lib, kompetentlik esa faoliyatda namoyon bo'ladigan holatdir. Shuning uchun kompetentlikni baholash bo'lajak mutaxassislarning vazifalarni bajarish qobiliyati orqali amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standartlariga ko'ra, o'qituvchilarni tayyorlashning asosiy bosqichlari:

- Kasbiy savodxonlikni ta'minlovchi bilimlar tizimini shakllantirish;
- Kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikma va fazilatlarni rivojlantirish;



- Mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- Ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish.

Pedagogik texnologiyalar – bu belgilangan maqsadlarga kafolatli erishishni ta'minlaydigan metodlar va vositalar tizimidir. Har qanday texnologiya quyidagi mezonlarga javob berishi kerak: konseptuallilik, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik va takrorlanuvchanlik. Kompetentlik va pedagogik ijodkorlikni shakllantirish baholanishi turli mezonlarga asoslanadi. Baholash mezonlari: bilimni egallash darajasi, nostandart vaziyatda yechim topa olish, ijodiy topshiriqlarni bajara olish ko'nikmalari va boshqalar. Mikdoriy baholash ko'rsatkichlari: o'zlashtirish, bilim darajasi, motivatsiya.

Baholash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- Yozma va og'zaki nazoratlar;
- Tuzilmali va esse tipidagi savollar;
- Testlar (faqat eslab qolish emas, bilimni amalda qo'llay olishni baholashga xizmat qilishi kerak).

Nazorat algoritmi: o'quv materiallar tayyorlanadi, savollar tuziladi, komissiya tayinlanadi, sanalar belgilanadi, natijalar e'lon qilinadi. Bo'lajak mutaxassislar o'zlarini o'zlari baholaydilar (o'z-o'zini ta'riflash), bu metod ularning kasbiy va ijodiy salohiyatini aniqlashga yordam beradi. Kasbiy kompetentlik va ijodkorlik darajasi amaliyot jarayonida ham baholanadi. Bu davrda nazariy bilimlarni amalda qo'llash, jamoa bilan ishlash, asbob-uskunalaridan foydalanish, vaziyatlarni tushunish qobiliyati kuzatiladi. Baholash ikki tomonlama – ishlab chiqarish rahbari va ta'lim muassasasi vakillari tomonidan olib boriladi.

Amaliyotda oralik baholash, bitiruv ishi himoyasida esa yakuniy baholash amalga oshiriladi. Bu baholash mezonlari va ko'rsatkichlari har bir yo'nalish uchun ishlab chiqilishi kerak. Nazorat jarayoni ta'limning tarkibiy qismi bo'lib, bilim va ijodiy



salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. U intizom, mas'uliyat, mustaqil o'rganish va tafakkurni shakllantiradi.

Ta'limning vazifasi bo'lajak mutaxassislarning bilimini tekshirishda yaqqol ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda, bo'lajak mutaxassislar o'zlashtirgan bilimlarni takrorlab, tushunarsiz jihatlarni aniqlab olish imkoniga ega bo'ladilar. Boshqa talabalarning javoblarini tinglash orqali mavjud bilimlar mustahkamlanadi va yangi ma'lumotlar bilan boyitiladi. Guruhdoshlarning javoblariga qo'shimcha qilish, bilmay qolgan savollarga javob berishga harakat qilish orqali mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi.

Nazoratning tarbiyaviy ahamiyati ham mavjud. Bo'lajak mutaxassislar darslarga tayyor bo'lish uchun vaqtni unumli ishlatadilar, tartib-intizomga amal qilishni o'rganadilar. Tekshirish va baholash ularga o'z bilimlarini, qobiliyatlarini mustaqil tahlil qilishga, kamchiliklarini ko'rishga va ularni bartaraf etish yo'llarini izlashga yordam beradi.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash funksiyalari to'g'ri amalga oshirilsa, bu shaxsning tafakkurini, hissiyotlarini va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Shu boisdan ham nazorat jarayoni rivojlantiruvchi funksiyaga ega bo'lib, zamonaviy ta'limda asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetentlik va pedagogik ijodkorlikni baholash – bu bo'lajak mutaxassisning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini aniqlash, uning mustaqil fikrlashini, tashabbuskorligini va ijodkorligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonni to'g'ri tashkil etish esa ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Uzbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»/ Barkamol



avlod - Uzbekiston tarakkiyotining poydevori. - T.: «Shark», 1997.

- 31-61 b.

2. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch». T. «Ma'naviyat». 2008.- 63 b

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz. - T.: Uzbekiston, 2017. - 488 b.

4. Mirziyoev Sh.M. Tankidiy taxlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik koidasi bulishi kerak. - T.: Uzbekiston, 2017. - 104 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Uzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: Uzbekiston, 2016. - 56 b.

6. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining Karori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tugrisida" 20.04.2017 y., PK-2909, Uzbekiston Respublikasi konun xujjatlari tuplami, 2017 y., 18- son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda.

7. Feruza Kamolovna Azimova: **"Science and Education" Scientific Journal** O'zbekistonda standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirishning tashkil etilishi tahlili/ **January 2023 / Volume 4 Issue 1**